

OTMLARIDA TALABALARNING CHIZIQSIZ TA'LIM TRAYEKTORIYASINI
QURISH MAZMUNI

Mamarajabov Shavkat Ergashevich

TDIU, "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrası professorı, p.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quv jarayonida talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini qurish, uning o'ziga xos xususiyatlari va individual ta'lim trayektoriyasini qurish masalasi bo'yicha tadqiqotlarning izohlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish jarayoni, o'quv jarayoni, ta'lim trayektoriyasi, ta'lim trayektoriyasini qurish, individual ta'lim trayektoriyasi

Аннотация: В данной статье представлены построение индивидуальной образовательной траектории обучающихся в образовательном процессе, её особенности и разъяснения исследования по вопросу построения индивидуальной образовательной траектории.

Ключевые слова: образовательный процесс, процесс преподавания, образовательная траектория, построение образовательной траектории, индивидуальная образовательная траектория

Annotation: This article describes the construction of the individual educational trajectory of students in the educational process, its peculiarities, and the explanations of the research conducted on the issue of constructing an individual educational trajectory.

Key words: teaching process, educational process, educational trajectory, construction of educational trajectory, individual educational trajectory

Hozirgi kunda oliy ta'limda an'anaviy ta'lim jarayoni keng tarqalgan bo'lib, u asosan chizikli "konstruksiya"ga asoslangan, ya'ni bilimlarni ma'lum tartibga asoslanib egallanishi imkonini beradi, o'rganilayotgan predmetning alohida mavzulari orasida mantiqiy bog'lanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Chiziqlilik deganda nimani tushunsak bo'ladi? Mazkur savolga javob topish uchun lug'atlarga murojaat qilamiz.

"Chizikli – chizig'i, chiziq-lari bo'lgan" yoki "qandaydir chiziq bo'ylab sodir bo'ladigan" deya ta'riflanadi (o'zbek izohli lug'ati).

"Chiziqlilik – tizim yoki jarayonlarning xossasi bo'lib, u ba'zi parametrlarning boshqasiga chizikli bog'liqligi (yoki bunday bog'liqlikning chizikli bog'lanishga jiddiy bog'liqligi" mavjudligidan iborat..." qachonki "natija kirish parametrlarining qiymatiga to'g'ri proporsional bo'ladi" [200].

"Chiziqlilik – ikkita o'zgaruvchan kattalikning doimiy munosabati; bir omilga bevosita bog'liqlik; bir yo'nalishga tegishli" [179].

Chiziqlilik – "bu ijtimoiy jarayonning, hodisaning bir yo'nalishliliigi, u ma'lum bir mohiyat, maqsad yoki tuzilmaning oldindan belgilangan muqobil bo'lmagan holda amalga oshirilishi sifatida tushuniladi,... agar evolyusiya asosiy maqsadni (ma'lum loyihani) amalga oshirishda faqat ijtimoiy ob'ektni tashkil etishning murakkabligi sifatida tushunilsa, yuqori va tasodifiy omillar ijtimoiy ob'ektning tuzilishiga va uning rivojlanish yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi" [181].

Shunday qilib, ta'lim jarayonidagi chiziqchilik ta'lim muassasasi tomonidan ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona taklif etiladigan ta'lim natijasiga erishish yo'li deb tushunish mumkin.

Ta'kidlash mumkinki, mahalliy ta'limda individual ta'lim trayektoriyasi ham chiziqchi o'quv jarayoni asosida qurilgan.

Chiziqchi o'quv jarayonining afzalligi o'qitish vaqtining sezilarli tejalishidir. Ammo bunda talabaning rivojlanishiga emas, balki ma'lumot olish jarayoniga ustuvorlik beriladi va o'quv jarayonining o'zi talabaning ichki dunyosi bilan bo'sh bog'langan bo'lib, uning individual xususiyatlari amalda deyarli hisobga olinmaydi.

Shu bilan birga, ish beruvchilar manfaatlari va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish kredit-modul tizimining parametrlarida o'z aksini topgan. Bunga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim mazmunining tayyorlov yo'nalishi bilan uyg'unlashuvi;
- Talabalar ta'lim trayektoriyasining chiziqsizligi, tanlov kurslari;
- Modul tizimi;
- Masofaviy ta'lim, elektron kurslar;
- Talabalar va o'qituvchilarning akademik reytingi.

Ta'lim jarayonida individual xususiyatlarni hisobga olish va chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurish uchun ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlashda majburiy fanlar bilan birga talabalar uchun tanlov fanlarining bo'lishi zarur va xorijiy OTMLari tajribasidan kelib chiqqan holda individual o'quv dasturlarining ishlab chiqish imkoniyatlarini ham nazarda tutish lozim.

Shu sababli talabalarning chiziqsiz ta'lim trayektoriyalari tushunchasining paydo bo'lishi har bir talaba uchun ma'lum o'quv modullari, tanlov kurslari yoki bilimlarni o'zlashtirish darajalarini mustaqil tanlash uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratishni anglatadi, bu esa "o'quv dasturlarining tarmoqlanib ketishi asosida talabalarning motivatsion munosabatlari, qiziqishlari, bilish va boshqa shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga" olish bilan o'quv jarayonining chiziqsiz qurilishiga olib keladi. Bu har bir ta'lim oluvchiga ma'lum majburiy elementlarni o'z ichiga oladigan, shuningdek, talabalar tomonidan modul va o'quv kurslarini tanlashda o'zining individual ta'lim marshrutini ishlab chiqish imkonini beradi (shu tarzda tuzilgan ta'lim marshrutini amalga oshirish ta'lim dasturi mazmunini o'zgarib turishi bilan amalga oshadi) [138, s.78].

O'quv rejasi doirasida talaba kafedra tomonidan taklif etilgan qator fanlar orasidan uning kasbiy intilishi, qobiliyati va shaxsiy sifatlariga ko'proq muvofiq keladiganlarini tanlaydi.

Biroq, rasmiy "boloniya" hujjatlarining hech birida yevropa oliy o'quv yurtlarida chiziqsiz ta'lim trayektoriyalarini majburiy joriy etish haqida so'z bormaydi.

Ushbu tushuncha birinchi marta 2003 yilda Berlin kommyunikida paydo bo'lgan va asosan ta'lim dasturlarini modulli qurish tushunchasi (modulli, tanlov kurslari) bilan bog'liq.

Modul deganda avtonom, ta'lim natijalari nuqtai nazaridan tugallangan, dasturning tarkibiy elementlari tushuniladi. Ularda ta'lim natijalari aniq shakllangan va baholash mezonlari adekvat bo'ladi, ta'lim dasturiga esa ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari ham talabalar, ham ish beruvchilarning qiziqishlari va manfaatlariga mos holda o'zgartirish, egiluvchan variativlash imkonini beradi.

Adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qo'llashda talabalarning kursdan kursga o'tishi bilan tanlov fanlarining soni ortib boradi. "Masalan, yevropa mamlakatlarida birinchi kurs bakalavr talabarlari tayyorlov yo'nalishidan kelib chiqqan holda 20-40 foiz fanlarni tanlash imkoniga ega (qolgan fanlar majburiy), ikkinchi kursda esa – 40-60; uchinchi kursda esa – 80 foizgacha. Ammo bu tizimni Ispaniya OTMlarining ba'zilarida uzoq yillardan beri qo'llash shuni ko'rsatdiki, yuqori kurslarda ham bu ko'rsatkichning 40 foizdan oshib ketishi tavsiya etilmaydi. Chunki bu ko'rsatkichning oshib borganda o'quv jarayonidagi tartibsizlikka olib keladi va talaba tanlagan mutaxassisligi bo'yicha to'liq bilim olmaydi [185, s.69].

O'zbekiston ta'lim standartlarining yangi avlodi ikki – majburiy va tanlov (ta'lim ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan) qismiga bo'lingan. Bundan tashqari, DTSning majburiy fanlar sikli fanni o'zlashtirish natijasida shakllanadigan kompetensiyalarni belgilaydi, uning mazmuni asosan OTMning o'zi tomonidan ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, DTSlari dasturlarning tuzilishi, o'zlashtirish natijalari va ularni amalga oshirish shart-sharoitlariga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilab beradi, ta'lim dasturlarining mazmuniga esa qat'iy talab qo'yilmagan. Bu esa dasturning variativ qismini amalga oshirish doirasida to'liq OTMning erkinligini ta'minlaydi.

Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, hozirda respublikamiz OTMlarida o'quv fanlarining 40%dan 80%gacha variativ qism uchun ajratilmoqda, talabalarning kursdan kursga o'tishida tanlov fanlarining o'sish dinamikasi hozircha kuzatilmadi. Bunday vaziyatda, bizning fikrimizcha, ta'lim jarayonidagi spontanlikni oldini olish uchun mazkur masala yuzasidan yevropa davlatlari tajribasini inobatga olgan ma'kul.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar OTMlariga ta'lim mazmunini mustaqil belgilashlari, shuningdek, ta'limni individuallashtirilishi imkonini beradi.

Chiziqsiz ta'lim jarayonining har bir sub'ekt tomonidan bilim olishning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarini tanlashning variativligi olingan bilimlarning shaxsiy ahamiyatga bo'lishi uchun sharoitlar yaratadi, bu esa bilish jarayonining natijalarini aks ettiradi va ma'lum bir shaxsning shaxsiy mulki hisoblanadi. Ular insonning tarbiyasi, madaniyati, ijtimoiy mansubligi, uning xarakterli xususiyatlari, fikrlash darajasi bilan uzviy bog'liq, shuningdek, yangi nazariy va amaliy bilimlarni shakllanishining asosi hisoblanadi [176].

Dasturning variativ qismi bo'yicha hamma narsa ma'lum bo'lsa, asosiy qismga kiruvchi majburiy fanlar doirasida ta'lim jarayonining chiziqsizligini ta'minlash masalasi mavhumligicha qolmoqda.

Chiziqsizlik tushunchasi matematikadan kirib kelgan va "matematik tenglamalarning bir turi bo'lib, muhitning xossalari bog'liq holda darajali katta miqdorlarni, katta birliklarni, yoki koeffitsientlarni o'z ichiga oladi. Chiziqsiz tenglamalar bir nechta sifat (bittadan ko'p) yechimlariga ega bo'lishi mumkin" [181].

Bu ta'rifni ta'lim jarayoniga ko'chirish mumkin, ya'ni uning barcha ishtirokchilari "chiziqsizlik xususiyatiga ega, chiziqsiz tizim hisoblanadi, bir-birlari va muhit bilan doim chiziqsiz munosabatda bo'ladilar" [148].

Shu bilan bog'liq holda "ta'limning chiziqsiz trayektoriyasi" atamasining paydo bo'lishi tasodifiy emas.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ta'lim – bu o'qitish natijasi, shuning uchun "chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi" atamasiga o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek, talaba ta'lim olish jarayonining faol sub'ekti ekanligini va bu kredit-modul tizimining asosiy qoidalaridan biri ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, mazkur atamaga o'tish joizdir.

Chiziqsiz ta'lim traektorisi deganda biz ta'lim trayektoriyasining shunday turini tushunamizki, u ta'lim natijalariga erishish yo'llarining ko'p xilligi bilan xarakterlanadi va u talabning intellektual va ijodiy potensialini to'plash, rivojlantirish va amalga oshirishni ta'minlaydi. Chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi bo'yicha harakatlanib, ta'lim oluvchi o'quv material mazmunining variativligi, uni o'rganishning uzluksizligi va chuqurligi, shuningdek, bilish faoliyatining usul va shakllari, bo'lajak kasbiy qiziqishlari va istaklari, mutaqqilligi va o'z-o'zini rivojlantirish rolining yetakchiligi asosida ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi mumkin.

Demak, talabalarning chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini nafaqat turli modul va kurslarni tanlash yordamida, balki majburiy fanlar, masalan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"da ham qurish mumkin. Lekin u quyidagilar orqali amalga oshadi:

- O'quv materialini o'rganish uzluksizlikdagi farqlar;
- Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi kursi mazmuni variativligining chuqurligi;
- O'quv loyihaviy faoliyatning tashkil etilishi.

O'rganilayotgan materialning murakkabligi, chuqurligi va uzluksizligini talabalarning bo'lajak mutaxassisliklari, qiziqishlari va qobiliyatlariga bog'liq holda variativlash orqali "turli trayektoriyalar bo'yicha harakatlanishi" mumkin, oxir oqibatda esa mazkur fan bo'yicha DTSda belgilangan umumkasbiy kompetensiyalarni shakllantirib deyarli bir natijani egallashi mumkin.

Ta'kidlash joizki, majburiy fanlar doirasida chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurish bajariladigan topshiriq murakkabligini talaba tomonidan erkin tanlanishi asosida darajali differensiallash orqali ta'minlanishi mumkin. Buning uchun individual o'quv rejasi, o'quv mashg'ulotlariga ishtirok etishning individual jadvali talab etilmaydi, shuningdek, bir qator mualliflar tomonidan taklif etilganidek individual ta'lim trayektoriyasini modellashtirish va qurishda ma'lum mavzu yoki modulni yaxlit holda o'rganish uchun ajratiladigan vaqtni qisqartirish yoki ko'paytirishga zarurat yo'q.

"Individual ta'lim trayektoriyasi" va "chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi" tushunchalarini qiyoslashni quyidagi jadvalda taqdim etish mumkin.

Jadval 1. Individual va chiziqsiz ta'lim trayektoriyasi tushunchalarini taqqoslash

Taqqoslash parametrlari		Chiziqsiz ta'lim trayektoriyalari	Individual ta'lim trayektoriyalari
variativligi	Material mazmuni	mavjud	mavjud
	Bayon etishning uzluksizligi	mavjud	Mavjud, ammo shart emas
	O'rganish vaqti	yo'q	mavjud
	Materialning chuqurligi	mavjud	mavjud
	Nazorat shakli va metodlari	yo'q	mavjud
Individual	O'quv rejasi	yo'q	mavjud
	Dars jadvali	yo'q	mavjud
Trayektoriyani tanlash xarakteri		Mustaqillik, o'qituvchi tomonidan rahbarlik mavjud	O'qituvchi, tyutor, ota-onalar bilan

	emas	hamkorlik
--	------	-----------

Shunday qilib, jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, biz ham individual, ham chiziqsiz ta'lim trayektoriyasiga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim trayektoriyasini quramiz va biz chiziqsizlikni mustaqillik va o'z-o'zini rivojlantirishning yetakchi rolining mavjudligi sifatida ko'rsatib o'tamiz.

Adabiyotlar:

1. Павлуцкая Н.М. Дифференциация обучения физике бакалавров технических направлений подготовки как условие формирования их общекультурных и общепрофессиональных компетенций дис...д-ра пед.наук: 13.00.02 / Павлуцкая Нина Максимовна. – М., 2016. – 311 с.
2. Mamarajabov Sh.E. Ta'lim jarayonining differensiallashtirishning imkoniyatlari/ J. Maktab va hayot №1, 2022.- Б.38-40.
3. Mamarajabov Sh.E. Ta'lim jarayonida talabalarning chiziqsiz ta'lim trayektoriyasini qurishga sinergetik yondashuv / J. O'zMU xabarlari. 1/12/2, 2023.-Б.125-127.
4. Мусаханова Г. М. Мустақил таълим жараёнида таълим олувчиларнинг ташкилотчилик қобилиятларини инновацион технологиялар асосида ривожлантириш //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.